

NIZAMOVA Feruza,  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
O'zbek tili va mumtoz sharq  
adabiyoti kafedrası dosenti,  
filologiya fanlari nomzodi

## DEHLAVIY RUBOIYLARIDA IJTIMOIY MAVZULARNING YORITILISHI

## ОСВЕЩЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ТЕМАТИКИ В РУБАИЯХ ДЕХЛЕВИ

## COVERAGE OF SOCIAL THEMES IN RUBAI DEKHLEVI

**Annotatsiya.** Bu maqolada Amir Xusrav Dehlaviyning ruboiy janridagi ulkan merosi qisman o'rganilgan. Maqolaning maqsadi shoir asarlaridagi mafkuraviy va badiiy usulni o'rganish, shoirning ruboiy janridagi mahoratini aniqlash, shuningdek uning ruboiylarini tahlil qilish orqali fors-tojik adabiyoti tarixida uning ruboiylarining mavzu qatlamlarini o'rganishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** Forsiy adabiyot, tasavvuf, ruboiy, badiiy timsol, nazm, shoir, janr, tahlil, asar, til.

**Аннотация.** В статье предпринята попытка кратко изучить огромное наследие Амира Хосрова Дехлеви в жанре рубаи. Целью статьи является изучение идейно-художественной системы произведений поэта, выявление мастерства поэта в жанре рубаи, а также определение роли его произведений в истории персидско-таджикской литературы посредством анализа социальных тем его рубаи.

**Ключевые слова:** Персидская литература, суфизм, рубаи, образ, поэзия, поэт, жанр, анализ, произведение, язык.

**Annotation.** In the article Amir Khusrav Dekhlavi's huge heritage in the ruba'i genre is tried to study briefly. The aim of the article is to study the ideological and artistic system of the poet's works, to identify the poet's skills in the ruba'i genre, and also to define the role of his writings in the history of Persian-Tajik literature through analyzing his ruba'is.

**Key words:** Persian literature, sufizm, rubai, imige, poetry, poet, genre, analysis, work, language.

## KIRISH

Ruboiy janrining ko'p asrlik tarixi faqat poetik tizimining sayqal topib borishi bilan emas, ayni

zamonda mavzu doirasining boyishi, yangilanishi bilan ham xarakterlanadi. Dehlaviy ruboiylarida fors-tojik adabiyotida mavjud ruboiylar bilan g'oya jihatidan, obrazlar jihatidan yaqinlik sezilgan o'rinlar talaygina bor. Shu bilan birga, u yangidan-yangi g'oya, obrazlar va badiiy vositalarga juda boy. Amir Xusrav Dehlaviy ruboiylarining mavzu ko'lami keng va xilma-xildir. Amir Xusrav badiiy ijodga kirib kelgan paytlar ruboiy janr sifatida shakllanish jarayoni va mavzu doirasining ham boyib borishi davom etayotgan edi.

Ruboiylarda, mavzu belgilariga ko'ra, hayotiy taassurot, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, axloqiy mulohazalar badiiy shaklda o'z ifodasini topishi lozim. Xusravshunos olim M.Baqoyev Amir Xusrav ruboiylari mavzuiga to'xtalar ekan, ruboiy uchun xos asosiy mavzular qatorida, shoir ijodida ba'zida uchrab qoladigan ot, gurzi, o'q, tig', nayza, nuqra idish, bahor, navro'z, qish, gul, g'uncha, yomg'ir, uzum, kuz, shamol, chang, nog'ora kabilarga bag'ishlangan ruboiylarni ham qayd etadi. Bir turkum ruboiylar turli kasbu kor egalariga ham bag'ishlangan [2:43-b.]. Ular orasida kafshdo'z, changchi, taroqchi, gulfurush, oshpaz, baliqchi, tabib kabilar bor [7:896-b.].

## ASOSIY QISM

Amir Xusrav Dehlaviy ruboiy ufqlarini yanada kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. Amir Xusrav ruboiylari an'anaviy xususiyat va mavzular ko'lamiga ega ekani bilan bir qatorda, unda g'azaliyotida bo'lganidek, shoirning ishqqa munosabati ko'proq o'z ifodasini topgan. Natijada, bu janrning tematik asosini tashkil qiluvchi an'anaviy, falsafiy, ijtimoiy, axloqiy ruboiy Xusravda ishq bilan yo'g'rilgan xusravona shakl kasb etdi. Ularda shoir ishqqa mutlaqo g'arq bo'lib ketgan oshiq sifatida namoyon bo'ladi.

Amir Xusrav ruboiylarining tematik jihatdan tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning mavzu doirasi juda xilma-xil. Chunonchi, ularni umumlashtirib, shartli ravishda quyidagilarni keltirish mumkin:

Ishq va u bilan bog'liq kechinmalar; irfoniyy-falsafiy; ijtimoiy-siyosiy; pand-nasihati hamda tabiat tasviri mavzuidagi ruboiylari mavjud.

Ulardan ba'zilarida oshiq ko'ngilning iztiroblari, hijron azoblari, ushalmas armonlari, visol umidlari joy olgan bo'lsa, ayrimlarida mazmun shoirning hayot yo'li, o'z ahvoli bilan bog'lanadi, boshqalarida esa, u o'z davri ijtimoiy muammolarini, moddiy olam qonuniyatlarini, inson uchun bilim va hayot tajribasining ahamiyatini,

maqsadga erishish uchun sabot-matonat ko'rsatish lozimligini qalamga oladi. Yana boshqa turkum ruboiylarida taqdiridan, dunyoning beqarorligidan noliish barobarida, mazlum va nochorlarga hamdardlik bildirib, ularga pand-nasihatlar qiladi, odil hukmdor qiyofasini chizadi, turli axloqiy muammolarga to'xtaladi. Ba'zi ruboiylari kishini hayot quvonchlaridan bahramandlikka, vaqtni behuda o'tkazmaslikka chorlaydi, ishqni, mayni, bahorni ulug'laydi, tabiatni vasf etadi. Amir Xusrav ruboiylari mavzu doirasining yuqorida keltirilgan tasnifi shartli, albatta. Sababi, Xusrav bisotida shunday ruboiylar borki, bu tasnifning ikki, uch turkumiga barobar aloqador bo'lishi mumkin. Ayniqsa, ishqiy hamda irfoniyy mazmundagi ruboiylar ayni shu xossaga ega.

Ma'lumki, tasavvuf she'riyatining mavzu doirasi keng. Ularda riyozat, tavba, vara', zuhd, faqr, sabr, qanoat kabi tariqat odobi masalalari mavzu qilib olinishi mumkin. Oshiq ma'shuqning visoliga intiladi. Bu sufiy uchun Haqqa vosil bo'lish yo'lidagi harakat. Bu yo'lni bejiz tariqat deb atashmaydi. Unda yo'lchi (solik) qanchalar mashaqqat va iztiroblarga duch keladi. Majoziy parda ostiga yashringan ishq haqiqiyga bag'ishlangan ruboiylar qatorida, mazmunidan irfoniyy ruhda ekanligi aniq ko'rinib turadiganlari ham anchagina bor.

Sendan yuzlab jafo ko'rsam ham,  
Ham sendan yuzlab rozilik ko'rsam-da,  
To tirikman seni istab qolaman,  
To ko'zim ochiq ekan, seni ko'rishni istab qolaman.

Ko'rinib turibdiki, bu misralar ma'shuqi azal, ya'ni Xudoga qaratilgan. Yuzlab jafo ko'rsatsada, ma'shuq ma'shuqligicha qoladi. Ko'ngil uni qo'msayveradi, ko'z uning tomoshasiga intilaveradi.

Piri komil g'oyasi. Amir Xusravning barcha she'rlarida bo'lganidek, uning ruboiylarida ham kishining hayotiy tajribasini ideallashtirish, uni keyingi avlod yo'lini topib ketishi uchun eng zarur omil deb bilish holatini kuzatamiz. Bu vazifani har bir tariqatda pir bajaradi. Shoir ta'kidlaganidek, hayotda duch kelinadigan turli-tuman to'siqlarni bartaraf etishning eng asosiy vositasi bo'lib piri komilning hayot saboqlari hisoblanadi.

Shoirning o'zi deyarli barcha dostonlarining debochasida alohida ta'kidlaganidek, uning ustodi va piri – Sulton ul-mashoyix Nizomiddin Avliyo boshqa muridlaridan ko'ra ko'proq Amir Xusravni

o'zi bilan birga olib yurar edi. Sevimli shogirdini hatto muborak haj safariga ham o'zi bilan birga olib borgan ekan. Oqibatli murid Amir Xusrav har bir dostonining dastlabki boblarida pirini sharaflab misralar ajratishi bilan birga, o'z ustoziga bir qancha ruboiylar bag'ishlagani shu jihatdan tabiiy ko'rinadi. Bu ruboiylarda shoir pirini o'z tinchligi, husni amallari, murodi hosilliklarining garovi sifatida talqin qiladi. Shunisi diqqatga sazovorki, murid Amir Xusrav Dehlaviy o'z ustozini Shayx Nizomiddin Avliyoni qayerda tilga olmasin, uning nomidan so'z o'yini chiqarib (nizom-tartib, qoida), o'ta tartibli shaxs, ibrat manbai sifatida sharaflaydi:

Shayx bizga dinning nizomi bo'lib yetgan ekan,

U yuksak olamdan xudoning xazinachisidir.  
U har murid tashlagan Qadamining sohibidir,  
Shunga ko'ra hamma ishlarimiz tartibli.

Pirining shoirligi unga badiiy ijodda ham qo'l keldi. Nizomiddin Avliyoning to'rtliklari Amir Xusravga, keyinchalik, ruboiylar ijod qilishida ilhom baxsh etib turgani shubhasiz. Amir Xusrav undan tasavvuf g'oyalarini chuqur o'zlashtirdi va ularni imkon qadar har taraflama targ'ib etish yo'llarini qidirdi. Shoir o'z davrining e'tiborga sazovor ana shu «chishtiya» tariqati jamoasining a'zosi bo'lgani holda unga umrining oxirigacha sodiq qolgan.

Amir Xusrav Dehlaviyning «Tuhfat us-sig'ar» («Yoshlik tuhfasini») deb nomlangan birinchi devonida Shayx Nizomiddinga bag'ishlangan qasidalari ham bor.

Axloqiy muammolar orasida tariqat odobi, soxta oshiqlik holatlari ham shoir nazaridan chetda qolgan emas. So'fiyona ko'rsatmalar ruhida ruboiylarining ko'pi tariqat yo'liga kirgan soliklarga qaratilgan:

Dargoh tolibi bo'lgan darveshning –  
Qo'li ikki jahondan qisqa bo'ladi.  
Xoja-yu shohlar bilan suhbatdosh kishi–  
Xudbin bo'ladi u, Xudoga xush keluvchi emas.

Bu ruboiyni Amir Xusrav o'z hayotidan ma'lum darajada ko'ngli to'lmagan holda yozgan deyishimiz mumkin. Sababi, shoir juda yoshligidan chishtiya tariqatiga daxldor bo'laturib, yoshi qaytar paytlargacha shohu xojalar suhbatida qolib ketgan, dunyoviy hayot kechirgan, nihoyat, davlat xizmatidan bo'shab, ijodga berilgan edi. Bu

ruboiy o'sha yillar yaratilgan bo'lsa, ajab emas. Amir Xusrav so'fiyona emas, ko'proq dunyoviy hayot kechirgan (musiqqa, qo'shiq va ilm bilan shug'ullangan, davlat xizmatida ishlagan) bo'lsa-da, chishtiya g'oyalariga sadoqati «Xamsa»sining birinchi dostoni «Matla' ul-anvor»da, uning boshqa ko'pgina asarlarida yaqqol ko'rinib turadi. Umr bo'yi Shayx Nizomiddinning to'rt yaqin xalifasidan biri bo'lib yurgani, tasavvufni juda yaxshi o'zlashtirgani uning quyidagi ruboiyni aytishga huquq beradi:

Oshqlik kitobin o'qigan har kim,  
Dastlabki harfidan bexabar qolar.  
Va oshiqdar dardidan bexabar inson,  
O'lik bo'lsa hamki, yashashni bilar.

Yuqoridagi ruboiy Amir Xusravning ham dunyoning bu ishlarga befarq bo'lmaganini ko'rsatadi. Shoirning bu borada yo'l ko'rsatuvchi, yoki xato yo'ldan qaytaruvchi ruboiylari anchagina bor.

Taqdirdan shikoyat motivlari. Hayotda inson Qadrining naqadar past ekanligini yaratuvchanlikda mukammal hisoblangan zot – Xudoga murojaat tarzida berilishi qiziq holat:

Ey xilqati bilan hammaning havasini keltirgan,  
Zamona nokasligidan dodimga yet.  
Faryodki, qadrimni bilmaydi hech kas,  
Umidim jahonning maxdumi bilgan bo'lsa bas.

Sen yaratgan hamma narsalar havasni keltiradi, zamona esa nokasliklardan iborat. Xudo barcha narsani mukammal yaratadi, insonning yakka yolg'iz emas, jamiyat bo'lib yashashni esa o'ziga buyurdi [1:364-b.]. Bu ahkom asosida jamiyatni inson yaratgan, shuning uchun u nuqsonlidir. Zamona nosozliklaridan shikoyat motivlarining barchasi inson o'zi yaratgan narsasidan shikoyat ekani ushbu ruboiyda yaqqol ko'rinadi.

Hayot zavqi motivlari. Amir Xusrav umrining ko'p qismini saroy xizmatida o'tkazgan bo'lsa ham, shunchalar ko'p ruboiylar ichida saroydagi bazmi jamshidlar haqidagi birorta she'r uchramaydi. Ammo hayot ne'matlaridan bahramand bo'lish, hayot nashidasini surish haqidagi fikrlar ilgari suriladiki, bu albatta, umrning qisqaligi bilan bog'liq. Shoir fursatni g'animat bilish, hayotdan lazzatlanib qolishga chaqiradi:

Umrining mastona majlisini shodlik bilan beza,  
Umr uyini g'am dastidan barbod qilma.  
Boda paymonasin to'ldir, ey umri aziz,  
Umr paymonasin to'ldirib ulgurmaslaridan oldin.

Bu misralar, ma'lum ma'noda, tasavvuf tariqatlarining faqat misti-kadan iborat deb talqin qiluvchilarga zarba hamdir.

Bahor va tabiat tasviri. Badiiy ijodda tabiat va inson munosabatlari juda qadimiy va umrboqiy mavzu. Sababi insonning tabiat bag'rida dunyoga kelishi, tabiat uni yedirishi, ichirishi, kiyintirishi, voyaga yetkazishi bo'lsa kerak. Amir Xusrav Dehlaviy ruboiylarida tabiatni, ayniqsa gullar, bog'-bo'ston, bulut, yomg'irli manzaralarni shunchalar maromiga yetkazib tasvirlaydiki, ko'pgina rassomlar unga havas qilsa arziydi:

Gul faslida sarxush bo'lish har kimning ham boshida bor,  
Va ul nargis qadahdan bosh ko'tarmas.  
Ey bulut, ko'z yosh to'ksang, uzrlisan,  
Chunki sening boshingda bir ishtiyoq bor.

Yaxshilab e'tibor qilinsa, bu ruboiyda tabiat tasviri, uning har bir go'zal lavhasi inson bilan bog'liq holda yaratilganini payqash qiyin emas. Amir Xusrav Dehlaviyning tabiat tasviri mavzuidagi ruboiylari orasida Navro'zga bag'ishlanganlari ham anchagina bor:

Navro'z keldi-yu, gul jilvalar qildi,  
Sabo g'unchaning pardasin yirtidi.  
Tog' qirrasidagi lola qonin ko'r, –  
Go'yo ho'llikdan pastga tomchilashga oshiqadi.

Tadqiqotimiz ilovasida tabiatning uyg'onish pallasiga bag'ishlangan bunday ruboiylardan beshtasini keltirganmiz. Ularda ko'proq gul, nargis, piyola, may, sarv kabilar ishtirok etadi va yilning bu go'zal damlari tarannum etiladi. Bularning barchasida navruz madhiyasi bilan bir qatorda bu mavsumning ayrim jihatlarini jamiyatdagi ba'zi holatlarga bog'lashga moyillik bor.

Hajv va hazil motivlari. Hajviy ruboiylarida shoir, ko'pincha jamiyat hamda tariqat mezonlarini buzib turgan tasodifiy so'fiylar, riyokor shayxlarni qattiq tanqid ostiga oladi:

Ey rasmiyatchi so'fiy, poklikka yetolmayсан,  
Jon bermaguncha xunbahoga yetolmayсан.  
Sen ketayotgan yo'l xojayu shohga olib boradi,  
Sen ketayotgan yo'ldan hech qayon  
yetolmayсан.

Hajviy ruhdagi ruboiylar unchalik ko'p  
bo'lmasa-da, bor. Ularning ayrimlari ijtimoiy  
mohiyat kasb etmaydi, balki shoirning muayyan  
kimsa bilan shaxsiy munosabati natijasida yuzaga  
kelgandek tasavvur uyg'otadi.

Ayrim ruboiylar hazil ohanglari bilan  
bezatilgan. Bu holatlarda ham shoir badiiylik  
unsurlaridan o'rinli foydalangan holda, ajoyib  
manzaralar yaratdi:

Qoshingdagi xoling ajib bir balodir,  
Jonga karashma ila ajib bir dilrabolikdir.  
Qoshing kumushga tugun tutdi (tuzoq qo'ydi)  
hushyor bo'l,  
Chunki u qora o'g'ri ajib bir tugun  
yechuvchidir.

Quyidagi misolda oshiqning ma'shuqasiga  
aytgan yozg'irishlari ketidan uning sho'xchan  
ohanglari yangraydi:

Har kun g'amza bilan nega jonimga qasd  
etasan,  
Nega sargardonu rasvoyi jahon etasan.  
Biror tun seni agar mast holda yolg'iz topib  
olsam,  
Sen nima qilishni bilmasang, men nima  
qilishimni bilaman.

Shunday qilib, biz Amir Xusrav ruboiylarida  
ko'p uchragan mavzu va g'oyalarga birma-bir  
to'xtalib o'tdik. Bu va yana boshqa boblarda  
keltirilgan misollarimizdan yaqqol ko'rinib  
turibdiki, Amir Xusrav ruboiylarining aksariyat  
qismi ishqiy-irfoniy bo'lishi bilan birga ularda,  
hozirgi paytgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan  
ijtimoiy-axloqiy masalalarni ham ko'taradi.

### XULOSA

Amir Xusrav Dehlaviy dunyoqarashiga  
ko'ra faylasuf san'atkor. Uning ruboiylari Haq,  
olam, odam, hayot, zamin, ishq to'g'risidagi  
falsafiy mushohadalarga to'la va bu meros unda  
so'z qudratining to'g'ri yo'naltirilishi natijasida  
betakror obidalarga aylangan.

Amir Xusrav dunyoqarashida ijtimoiy-falsafiy  
muammolar zamonasida xalq orasida keng tarqalgan  
chishtiya g'oyalari bilan qorishgan holatda talqin  
qilinishi natijasida ruboiylarning xalqchilligi  
ta'minlangan. Amir Xusrav Dehlaviyning dunyoviy  
ruboiylarida ham, sufiyona ruboiylarida ham  
mazkur ta'limotdagi asosiy g'oyalar hisoblangan,  
ayni paytda, xojagon va chishtiya tariqatlari  
qarashlari uchun umumiy bo'lgan poklik, halollik,  
to'g'rilik, mehr-shafqat, ilohiylik, dunyoviylik,  
barkamollik, zulm-istibdodga qarshi kurash,  
adolatparvarlik, umumislomiy, umumbashariy  
axloqiy fikrlar hamda ilg'or milliy, diniy qadriyatlar  
tematik asos qilib olingan.

Amir Xusrav Dehlaviy ruboiylari, ko'p  
jihatdan, joriy mavzular doirasini boyitganligi  
va yangilaganligi bilan xarakterlanadi. Amir  
Xusrav ruboiylari an'anaviy xususiyat va  
mavzular ko'lamiga ega ekani bilan bir qatorda,  
unda g'azaliyotida bo'lganidek, shoirning ishqqa  
munosabati ko'proq o'z ifodasini topganligi  
kuzatiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axloq-odobga oid hadis namunalari. – T., 1990. – B. 364.
2. Алиев Г.Ю. Персоязычная литература Индии. – Москва, 1968. – С. 49-65.
3. Arifdjanov Z. T. (2021). Functional Equivalents and Groups of Meanings of Simple Verbs in Persian Language. Theoretical & Applied Science, (6), 19-23.
4. Бакоев М. Хаёт ва эҷодиёти Хусрави Дехлавий. – Душанбе: Дониш, 1975.
5. Козмоян А.К. Рубои в классической поэзии на фарси (X-XII вв.). – Ереван, 1981.
6. Nizamova F. (2019). The history of studying Khusrav Dekhlavi's work // The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 2. – С. 95-99.
7. Nizamova F. Amir Khusrav's literary heritage in applied art rituals // Theoretical & Applied Science. International Scientific Journal. Philadelphia, USA. 24.09.2019 – P. 189-195. // <http://www.t-science.org/doi/10-78/PDF/10-78-35.pdf>
8. Nizamova F. Глобализация и литературный процесс // Актуальные вопросы современной науки. Международная научно-практическая конференция 20 августа 2020 г. – Новосибирск, 2020. – С. 91-95.
9. Dehlaviy Amir Xusrav. (1975). Osori muntaxab. Dar chor jild, jildi chahorum. G'azaliyot, qasoid, muqatta'ot va ruboiyot. – Dushanbe: Irfon, 1975. – 896 b. (In Tajik).
10. Шомухамедов Ш., Мусаев Б. Амир Хусрав Дехлавий. – Т.: Фан, 1971.